

"MILLIY har kunlik" OMONATI

Omonat shartlari	
Omonat turi	Muddatli omonat
Omonat valyutasi	O'zbek so'mi (UZS)
Ochish turi	Onlayn
Omonat muddati	24 oy
Omonat foiz stavkasi	Yillik 20%
Foiz hisoblashning boshlanish kuni	Foizlar mijozning hisobvarag'iga mablag' kelib tushgan kundan keyingi kundan boshlab, omonat yopilishidan oldingi kungacha hisoblanadi.
Minimal omonat summasi	1 000 000,00 so'm
Maksimal omonat summasi	Cheklanmagan
Qo'shimcha mablag' kiritish	Mavjud, omonat ochilgan kundan boshlab dastlabki 12 oy davomida.
Qisman yechish	Omonat hisobvarag'ida kamida 1 000 000 so'm qoldiq saqlangan holda mablag'ning bir qismini yechib olish mumkin. Qisman yechib olinganda, avval hisoblangan barcha foizlar yillik 18% stavka bo'yicha qayta hisoblanadi. Agar bir kunning o'zida mablag' bir necha marta yechib olinsa, foizlar faqat bir marta qayta hisoblanadi. Keyingi safar (boshqa kunda) mablag' qisman yechib olinganda, faqat avvalgi yechib olish sanasidan keyin hisoblangan foizlar qayta hisoblanadi. Qayta hisoblash natijasida ortiqcha to'langan foiz summasi Bank tomonidan omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi.
Omonat muddatini uzaytirish	Uzaytirilmaydi
Kapitalizatsiya	Kapitalizatsiyasiz
Ochish shartlari	Omonatni ochish uchun avval Mastercard Milliy bank kartasini rasmiylashtirish va uni bankning mobil ilovasiga bog'lash zarur. Shundan so'ng omonatni ochish mumkin bo'lib, omonat bo'yicha hisoblangan foizlar Mastercard Milliy kartasiga o'tkaziladi.
Foizlarni to'lash	Har kuni omonat valyutasida mijoz nomiga "ANOR BANK" AJda ochilgan Mastercard Milliy plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar mijozda Mastercard Milliy kartasi mavjud bo'lmasa, mijozning arizasiga asosan bepul ochib beriladi.
Muddatdan oldin yopish	Omonat muddatidan oldin yopilganda, hisoblangan foizlar yillik 16% stavka bo'yicha qayta hisoblanadi. Ortiqcha to'langan foiz summalari Bank tomonidan omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi. Foizlar mablag'larning omonatda amalda saqlangan to'liq kunlari uchun to'lanadi.
Asosiy omonat summasini to'lash	Omonatning asosiy summasi omonat valyutasida talab qilib olinguncha hisobvarag'iga yoki bank kartasiga o'tkazish orqali to'lanadi.
Omonatlar kafolati	"Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Bankdagi har bir noyob mijoz uchun kafolatlangan omonat summasi 200 000 000,00 so'mdan oshmaydi.

Diqqat!

Dam olish kunlari yoki bayram kunlarida omonat bo'yicha amaliyotlar (qo'shimcha kirim qilish, qisman chiqim qilish, yopish) amalga oshirilganda, ushbu amaliyotlarni bajarilish sanasi bo'lib keyingi birinchi bank ish kuni hisoblanadi.

